“TASDIQLAYMAN”
“Elite Homes Renovations”
MChJ direktori

__________ A. Xadjayev

«__» __________ 2025-yil

**Farg‘ona viloyati, Qo‘qon shahri, Aziztepa mahallasi, Yangi O‘zbekiston massivida ko‘p qavatli turar-joy binolari qurilishi uchun**

**TEXNIK TOPShIRIQ**

| | | |
|---|---|---|
| 1. | Obyektning nomi | Ko‘p qavatli turar-joy binosi |
| 2. | Buyurtmachi | “Elite Homes Renovations” MChJ |
| 3. | Moliyalashtirish manbai | O‘z mablag‘i |
| 4. | Loyiha tashkiloti | Eng yaxshi takliflarni tanlash orqali aniqlanadi |
| 5. | Obyektning joylashgan hududi | Farg‘ona viloyati, Qo‘qon shahri, Aziztepa mahallasi, Yangi O‘zbekiston massivi |
| 6. | Qurilish turi | Yangi qurilish |
| 7. | Obyektning murakkablik darajasi | III-toifa (O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 20-avgustdagi 496-sonli qarori, 2-ilovasi, 14.4-bandi) |
| 8. | Bosh pudratchi | Eng yaxshi takliflarni tanlash orqali aniqlanadi |
| 9. | Xizmatlarni ko‘rsatish joyiga qo‘yiladigan talab | Ishtirokchi tomonidan ishlarning bajarilishi buyurtmachi manzili (Toshkent shahri, Yunusobod tumani, Bog‘ishamol ko‘chasi 282-uy) va obyektining haqiqiy joylashgan joyi (Farg‘ona viloyati, Qo‘qon shahri, Aziztepa mahallasi) bo‘yicha amalga oshiriladi |
| 10. | Ishlarni bajarish va xizmatlarni ko‘rsatish muddati | Xizmatlarni ko‘rsatish muddati shartnoma imzolangan kundan boshlab «**90**» kalendar kuni. |
| 11. | Tanlash doirasida amalga oshiriladigan ishlar sifatiga qo‘yiladigan talablar. | Ishtirokchi ishlarni bajarishda tegishli sifatni ta’minlaydi. Ishning sifati ushbu texnik topshiriq talablariga muvofiqligi bilan belgilanadi. Qabul qilingan majburiyatlarni bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarilmaganligi uchun Ishtirokchi amaldagi qonunchilikka muvofiq moddiy javobgarlikni o‘z zimmasiga oladi. |
| 12. | Faoliyat yuritayotganiga kamida 3 yil to‘lgan bo‘lishi lozim. Davlat ro‘yxatidan o‘tkazilganligi to‘g‘risidagi guvohnoma (Asosiy faoliyat turi – qurilish). | O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016-yil 24-avgustdagi “Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o‘tish chora – tadbirlari to‘g‘risida”gi 275-sonli Qarori bilan tasdiqlangan Iqtisodiy faoliyat turlarining umumdavlat tasniflagichi |
| 13. | Tanlov predmeti bo‘yicha ish tajribasi | Talab etilayotgan yoki shunga o‘xshash xizmatni amalga oshirish tajribasi haqida ma’lumot |
| 14. | Pudrat tashkiloti elektron reytinga egaligi: (*https://reyting.mc.uz)* | Ishtirokchi pudrat tashkilotlari elektron reytingida yuqori ko‘rsatkichga ega bo‘lishi lozim. |
| 15. | Moliyalashtirish tartibi | Oldindan to‘lov-30%, qolgan 70%i topshirish-qabul qilish dalolatnomasi asosida amalga oshiriladi. |

| | | |
|---|---|---|
| 16. | Ishtirokchining moliyaviy holati | Ishtirokchining to‘lov qobiliyatiga layoqatli bo‘lishi, muddatida to‘lanmagan to‘lov hujjatlari hisobi yuritiladigan balansdan tashqari hisobvaraq (Kartoteka-2)da va banklar oldida kredit qarzdorliklari bo‘lmasligi talab qilinadi. |